

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.K.Kurbaniyazova</b>	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi .....	106
<b>Sh.D.Shodmonova</b>	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati .....	110
<b>A.I.Samijonov</b>	
"Xavfsizlik" va "Kiberxavfsizlik" atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi .....	114
<b>N.X.Djalalova</b>	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi .....	119
<b>I.Z.Nazarova</b>	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari .....	123

---

#### ТАРИХ

<b>A.B.Musayev</b>	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi .....	129
<b>Ф.А.Эгамбердиев</b>	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса .....	133
<b>M.M.Xolmatov</b>	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
<b>N.R.Israilov</b>	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi .....	149

---

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Q.V.Yo'ichiyev</b>	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili .....	156
<b>A.Badalova</b>	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace" .....	161
<b>S.F.Yuldasheva</b>	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi .....	166
<b>D.I.Nazarova</b>	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi .....	170
<b>S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova</b>	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning "Baldan so'ng" hikoyasi misolida).....	175
<b>M.R.Oxunova</b>	
Sharlotta Bronte "Jeyn Eyr" romanida xarakter tasviri .....	178
<b>L.Hasanova</b>	
Aesthetics of the literary direction romanticism .....	182
<b>Q.V.Yo'ichiyev</b>	
Abdulla sher sonetlari tahlili .....	186
<b>Z.F.Shukurova</b>	
"Tarixi Rashidiy" asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini .....	192

---

#### TILSHUNOSLIK

<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Zar" va "Zarra" asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida .....	198



UO'K: 821.512.133-1(09)`06

**HOZIRGI ARUZIY SHE'RLARNING QOFIYA TUZILISHI****РИФМОВАННАЯ СТРУКТУРА СОВРЕМЕННЫХ СТИХОВ АРУЗИ****RHYME STRUCTURE OF CONTEMPORARY ARUZI POEMS****Nazarova Dildora Ilhomovna** 

Buxoro davlat tibbiyot instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dottsent

**Annotatsiya**

*Ushbu maqlada mumtoz she'riyatimizda qofiya badiiyatning asosiy qirralaridan biri sanalib kelgan. Ijodkorning salohiyati she'rarda qo'llangan qofiyalarning g'oyalar mohiyatini, timsollar qiyofasini ochishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan so'zlarning ma'naviy teranligi, ohangdorligi, jilo va jozibasi bilan ham belgilangan. Qofyaning xilma-xil turlari va san'atlardan, vazn va qofiya munosabatlardan o'rinni foydalanish shoir mahoratining muhim jihatlaridan biri hisoblangan. Shuning uchun ham har qaysi ijodkor qofiya ilmini diqqat-e'tibor bilan o'rgangan va malikul kalom shoirlarning bu sohadagi san'atkorliklaridan ta'lif olib kamol topgan.*

**Аннотация**

В данной статье рифма рассматривается как один из главных аспектов искусства нашей классической поэзии. Творчество творца определяется значимостью использованных в стихотворениях рифм в раскрытии сущности идей, образа символов, духовной глубины, мелодичности, красочности и очарования слов, выбранных для рифмы. Уместное использование различных видов и искусства рифмы, весов и отношений рифм считается одним из важных аспектов мастерства поэта. Вот почему каждый творец тщательно изучал науку рифмы, учился и совершенствовался у искусства поэтов.

**Abstract**

*In this article, rhyme is considered one of the main aspects of art in our classical poetry. The creativity of the creator is determined by the significance of the rhymes used in the poems in revealing the essence of ideas, the image of symbols, the spiritual depth, melodiousness, brilliance and charm of the words chosen for the rhyme. The appropriate use of various types and arts of rhyme, weight and rhyme relations is considered one of the important aspects of the poet's skill. That's why every creator has carefully studied the science of rhyme and learned and perfected from the art of the poets.*

**Kalit so'zlar:** qofiya, imola, bo'g'in, hijo, bahr, radif**Ключевые слова:** имола, слог, баҳр, радиф, рифма.**Key words:** imola, syllable, bahr, radif, rhyme**KIRISH**

Qofiyalar she'riy asar musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashning asosiy omillaridan sanaladi. Qofiyadosh so'zlar tarkibidagi har qaysi tovush misra, bayt, bandga alohida jilo, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Qofyaning tuzilishi va turlari, she'riy janrlarning qofiya xususiyatlari, qofiya san'atlari va xatolari, vazn va qofiya munosabatlari mazmuni va mohiyatini atroflicha bilish zarur.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Zamonaviy aruzni haqiqiy ma'nodagi lirk mazmun bilan ham boyitgan Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Jumaniyoz Jabborov, Muhammad Ali, Shavkat Rahmon, Ikrom Otamurod, Eshqobil Shukur, Asqar Mahkam, Mirzo Kenjabeck, Sirojiddin Sayyid, Mirzaahmad Olimov, Zikrilla Ne'mat, Isroil Subhon kabi ijodkorlar ishlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. "Raviv", "Mujarrad qofiya", "Muassas qofiya", "Murdaf qofiya", "Muqayyad qofiya", "Zulqofiyatayn", "zulqavofi", "Tarsi", "Muvozana qofiya", "Musajja", "Tajnisli qofiya", "Hojib", "Radif" qofiya bilan aloqador tayanch tushunchalardir.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Ma'lumki, aruz she'riyatida aruz vaznida bo'lgani kabi qofiya tizimi ham temir qonunlarga ega bo'lgan arab-fors nazariyasiga asoslangan edi. Mumtoz she'riyatda mazkur qonundan

## ADABIYOTSHUNOSLIK

tashqariga chiqish, uning qoidalaridan chekinish hollari uchrab turadi. Lekin hozirgi g'azaliyotda bunday chekinishlar normaga aylangan. Buning sababi ham barmoq vaznining ta'siri, qofiyalashda fonetik va orfoepik tamoyillarga tayanishning natijasidir. Bu chekinish – o'zgarishlar quyidagi hollarda ko'rindi:

1. Arab-fors qofiya nazariyasiga ko'ra o'zak bilan qo'shimchaning qofiyalanishi xato hisoblanadi. Hozirgi kunda esa bu odatiy holdir. Jamol Kamolning:

To yonarkan charx uring, har lahma osmonimda o't,

Yonmasinlar bir quyoshdek, barq uring jonimda o't, -

matla'il g'azali maqta'dagi «Jilvagar bo'lsa buningdek ko'ngul olgonimda o't» misrasi bilan tugaydi. Osmonimda, jonimda so'zlariga olgonimda so'zi qofiyalangan. Raviy «n» keyingi so'zda sifatdosh qo'shimchasining tarkibida. Bunday misollarni har bir shoirdan ko'plab keltirish mumkin.

2. Nazariyaga ko'ra qofiya, avvalo, ikki guruhga ajratiladi: muqayyad qofiya, mutlaq qofiya. Muqayyad qofiyaning yetti turi, mutlaq qofiyaning esa yigirma sakkiz turi bor. Qoidaga binoan».... birinchi misra qanday qofiya turi bilan bog'langan bo'lsa, xuddi shu tur qofiya so'ngi misragacha davom etishi kerak». Hozirgi kunda ijod stixiyasi bu qoidani inkor etayotganini kuzatish mumkin. Erkin Vohidovning «Tong» g'azali qofiyalari: varaqlabdur - charaqlabdur – yaraqlabdur - mutlaqi mujarrad qofiya; taroqlabdur - oqlabdur - yiroqlabdur - kuchoqlabdur - ridfi asliyli mutlaq qofiyani tashkil etgan.

M.Abdulhakimovning «Tong» g'azali qofiyalari: qadar, xatar - muqayyadi mujarrad, raviy - «r»; qotar, uyg'otar, yotar, botar, otar - ridfi asliyli mutlaq qofiya, raviy - «t» va hokazo.

Sayr, xayr, dayr kabi ridfi zoyidi mufrad qofiyalar. Vasl, asl, nasl kabi qaydli muqayyad qofiyalari ba'zi hollarda muqayyadi mujarrad qofiya sifatida olinmoqda. Raviy bo'lgan «r» va «l» harflaridan oldin undosh harf kelib, raviy bilan bu undosh orasida unli yo'q. Bunday so'zlar orfoepik va fonetik qoidalarga moslashadi va undoshlar orasiga qisqa «i» tushishi hisobga olinadi. Bunda hijolar sifati o'zgarishidan tashqari, ayni paytda bu so'zlar bilan hosil qilingan qofiyalar tur jihatdan o'zgarishga uchraydi.

3. Ravysi bir xil bo'lmanovning tovushdan iborat qofiyalar ham uchramoqda. Masalan, M.Abdulhakimovning «jonim» radifli g'azalida «fasl», «muttasil», «asl» kabi so'zlarga ikkinchi baytda «asir» so'zi qofiyalangan.

Keltirilgan dalillar hozirgi g'azallar qofiyasi arab nazariyasingning qofiyada tovushlarning takrorlanishini talab etuvchi qoidalarni parchalab, xalq og'zaki ijodi va barmoq she'riyatiga xos bo'lgan «tovushlarning eshitilishida bir-biriga o'xshash va yaqin bo'lgan qofiya tomon butunlay o'tganini ko'rsatadi.

Qofiyaning shakliy turlari va ularning g'azal badiiyati, shakli va mazmuniga munosabati kuzatilsa, ularda qofiyalanishning uchga bo'lingani anglashiladi: misra so'ngi qofiyasi, ichki qofiya, misra boshi qofiyasi.

Ma'lumki, misra so'ngi qofiyasi she'riyatda asosiy va majburiydir. Hozirgi g'azallarda qofiya unsurlariga kiruvchi tovushlarning alliteratsiya hosil qilish hodisasi e'tibor qaratiladi.

Erkin Vohidovning «Ey kabutar» g'azalida radifi asliy «o» va raviy «h», shuningdek, artikulyatsiya jihatidan unga yaqin tovushlarning g'azal mazmuni va intonatsion tizimidagi badiiy-ifodaviy ahamiyati yorqin kuzatiladi.

Ey kabutar, she'rim olib yo/yo/ri dil ohimga yet,  
yo/yo/r mening ohimga yetmas, endi sen ohimga yet...  
gohi hudman gohi behud shavqu dardim sharH qil,  
gohi ohimdan xabarsiz, gohi shohimga yet...

**G'azaldagi** intizorlik, sog'inch, bir tomondan, so'zlar **ifodalayotgan ma'nolar** bilan anglashilsa, ikkinchidan, ridfi asli «O» va raviy «H» tovushlarining misralarda qatorlashib kelishi lirik qahramonning OHini aytib turadi.

Mirzo Kenjabekning «Garchi senga bor ginam» g'azalida raviy «r» va ridfi asli «o» g'azalga deyarli teng sochilib ketgan. Bu ikki tovush takrori butun g'azal davomida oshiqning zorini, ma'shuqaning ozorini va yana uning fazilati – orini /ya'ni hayosini/ qayta-qayta evfonik vosita bilan ta'kidlab turadi. Bu hodisa Jamol Kamol va Tohir Qahhorning qator g'azallari uchun ham xosdir.

Ichki qofiya o'zbek adabiyotida qadimdan faol qo'llanib kelinadi. Bunday qofiya mavjud baytlarda ichki ritmik bo'laklarning chegaralanishi bo'rtibroq turadi. Ichki qofiyani hosil qilayotgan so'zlar alohida olganda ma'no jihatidan yaqin bo'lishlari yoki bo'imasliklari mumkin. Lekin baytda muayyan bir fikrni yoki bir hissiyotni ifodalash uchun xizmat qilayotganliklari tufayli ular bir-birlariga mazmunan tortiladi va o'zaro kichik bir semantik gurujni hosil qiladilar. Bazan ichki qofiyali g'azallar barmoq tizimi talabiga ham to'liq mos tushadi, ya'ni so'zlar negizi xuddi turoqda bo'lgani kabi ikki ruknga bo'linib ketmaydi (bo'linsa ham barmoqdagidek ba'zi hollarda) va ichki qofiyalar bayning ikkinchi, to'rtinchi, oltinchi ruknlarining «yopilishiga» to'g'ri keladiki, har bir baytni a, - a - a - b shaklidagi to'rtlik sifatida olish mumkin bo'ladi. Misol tariqasida Jamol Kamolning «Vasling aro yonsam faqat...» g'azalining boshlanishini avval baytlarda ko'raylik:

Vasling aro yonsam faqat, hajring aro kuysam netay,

Yo munisi joning bo'lay, yo sadqai joning ketay.

**Bu g'azal rajazi musammani solim bahrida yozilgan. Har ikki rukndan keyin kelgan ichki qofiyani bir misra qilib olsak, bir turoqdan iborat bo'lgan to'rt turkumli barmoqdagagi to'rtlik hosil bo'ladi, shuningdek, aruzga ham putur yetmaydi:**

Vasling aro yonsam faqat, a

Hajring aro kuysam netay, a

Yo munisi joning bo'lay, a

Yo sadqai joning ketay. b

Umuman aytganda, qofiya she'riy asarlarda ifodalanayotgan ijtimoiy-axloqiy g'oyalar, teran falsafiy mushohadalarning badiiy so'z vositasida jozibali va ta'sirchan aks ettirishning muhim vositalaridan biridir. Har qaysi misra, bayt, banddagi qofiyalarda, qofiyadosh so'zlarda shoirning g'oyaviy-badiiy niyati o'z tajassumini topadi. Ijodkor qofiya vositasida o'z o'quvchisi diqqatini she'rdagi eng muhim fikrlarga jalb qiladi. Qofiyadosh so'zlar asarda gavdalantirilayotgan lirik va epik timsolning ma'naviy qiyofasini chizishga, ularning axloqiy tamoyillari: tafakkur olami, tuyg'ulari, orzu-armonlarini yorqin aks ettirishga xizmat qiladi.

Aruz vaznidagi she'rlarda qofiyani saqlamaslik muallifning iste'dod ko'lami, so'z boyligi, she'riy bilim darajasi, ijod prinsiplari, muayyan asarni yaratishdan ko'zda tutilgan maqsad, hatto shu asarning yaratilish sharoiti, vaqtি kabi juda ko'p ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga bog'liq. Ammo baribir qofiyaga qo'yiladigan talablar juda qat'iy bo'lgan, hatto o'tmish adabiyotida qofiyaga oid butun bir fan sohasi shakllangan.

Oq she'rlarning paydo bo'lishi qiziq hodisa, albatta. Bizningcha, bunday she'rlarning jadid shoirlari ijodiy merosida paydo bo'lishi qonyni hol hisoblanishi lozim. Muayyan tarixiy sharoit kontekstida qofiya ichidagi turli-tuman o'zgarishlar pirovardida qofianing ayrim she'rlarda butunlay barham topishiga olib keldi.

Qofiya san'atlardan biri g'azal, ruboiy, musammatlarda o'Ichov jihatidan teng bo'lgan so'zlarni qofiyada keltirishdir. Ushbu san'at **muvozana qofiya** deyiladi. She'riyatimizda undan keng foydalanib kelingan. Muvozana qofiyalarda qo'llangan so'zlar o'zaro tajnisiy munosabatda bo'lsa, hamohanglik yanada kuchayadi.

O'zbek she'riyatida keng qo'llangan qofiya turlaridan yana biri mujarrad qofiya hisoblanadi. Bu xil qofianing bir turi raviy cho'ziq unlidan iborat bo'lgan qofiya bo'lib, unda shu cho'ziq unlidan boshqa biron harf ishtirok etmaydi. Raviy o'rnda esa cho'ziq unlidan istalgani kela oladi.

"Yoshlik" devoniadagi aksariyat g'azallar Erkin Vohidovning aruz, g'azal kabi qadimiy badiiy shakllarda yangi davr mazmuni, sadolarini ifodalashdagi o'ziga xos mahoratidan dalolat beradi. Erkin Vohidovning aruz vaznida yaratgan asarlari orasida "O'zbegim", "Inson", "Qo'llar" kabi qasidalari alohida o'rin tutadi. "O'zbegim" qasidasi g'azal qofiyalari tizimiga asoslanib yozilgan. U ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun) bahrida yozilgan. Qasidaning umumiy hajmi 25 bayt. Unda "O'zbegim" so'zi misralardagi qofiyadosh so'zlardan keyin muttasil takrorlanib kelib, radifni hosil qilgan. Shuning uchun qasidadagi barcha fikrlar tasvir va tavsiflar tabiiy ravishda shu so'zga kelib bog'lanadi va uning mazmunini ochishga xizmat qiladi.

Erkin Vohidovning "Inson" radifi qasidasida shunday vazifani "inson" so'zi bajaradi.

Bu she'rlarning badiiy qurilishiga ahamiyat berilsa, ularda shakl e'tibori bilan ham yangiliklar borligi kuzatiladi. Masalan, "O'zbegim" qasidasi bir qarashda ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan va g'azal shaklida qofiyalangan. Birinchi bayning qurilishi go'yo shundan dalolat beradi:

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Tarixingdur ming asrlar  
 Fo i lo tun fo i lo tun  
 Ichra pinhon O'zbegim,  
 Fo i lo tun fo i lun  
 Senga tengdosh Pomir-u  
 Fo i lo tun fo i lun  
 Oqsoch Tiyonshon, o'zbegim.  
 Tun fo i lo tun fo i lun [334-337]

Bu to'rt qator she'r aslida ikki misradan iborat bo'lib, har bir misrada u rukn takrorlanadi (oxirgisi uch bo'g'inli) har misrada o'zaro qofiyalangan, "O'zbegim" so'zi radif bo'lib kelgan. Shu jihatdan bu bayt badiiy qurilishi g'azalning birinchi bayti qoidalariga to'la mos, faqat har misra ikkiga bo'lib yozilgan xolos, deb o'ylash mumkin. Lekin she'rning keyingi baytlarini diqqat bilan kuzatsak, bir misraning sun'iy ravishda ikki misraga bo'linganligini, balki har misra mustaqil ravishda ikki ruknli qilib yaratilganligiga ishonch hosil qilamiz.

«Adabiyotshunoslik asoslari»ni yaratgan professor To'xta Boboev esa Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi shu tip qofiyalarni (xub-ko'p, muhtoj-yalang'och) «taxminiy qofiya» sirasiga kiritadi. Vaholanki, Sharq mumtoz poetikasida «taxminiy qofiya» xili mayjud bo'limganligi, o'tmish adabiyotida qofiya oldiga qo'yiladigan talablar juda qat'iy bo'lganligi, Alisher Navoiyday adib esa bu talablarni o'zi ham kam-u ko'stsiz bajargani-yu, boshqa shoirlar ijodiga ham shu talab asosida yondashganligi ma'lum. Hatto o'tmish she'riyatida o'zak va qo'shimchani qofiya qilish, turli so'z turkumlarini qofiya qilish holatlari ham siyrak. Raviyning o'zgarishi hodisasi adabiyotning nisbatan keyinroq bosqichlariga xos hodisadir.

Ma'lumki, musammat shakllari qofiyalanish tizimiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Aytaylik, murabba' – to'rtlik, muxammas – beshlik, musaddas – oltilik, musabba' – yettilik, musamman – sakkizlik, mustasne' – to'qqizlik, muashshar – o'nlik band ko'rinishiga ega bo'lgani holda shu miqdorda qofiyalanishi bilan ham ajralib turadi. Zamonaviy shoirlar musammatlar yaratar ekanlar, ularga xos band shakli bilan bir qatorda qofiyalanish tartibini ham saqlab qoldilar. Masalan, Jumaniyoz Jabborovning "Gulob ichra" deb nomlangan va Navoiy g'azaliga muxammas tariqasida yozilgan quyidagi she'rini bunga dalil qilish mumkin:

Ne dardga chulg'anibsang, ey, nigoro, vahm xob ichra,  
 Yonurmi tashna lab sahro seningdek cho'g' sarob ichra,  
 Shifo istab, topolmasman davosini kitob ichra,  
 Isitqon, nozanin, jismingki terdan tushdi tob ichra,  
 Erur bir otashni gul bargikim yotqay gulob ichra.

Bu hasrat jismu zorimni yoqibdir misli chaqmoqkim,  
 Ishim faryod ila olamni emdi o'tga yoqmoqkim,  
 Kuyar ohim sharoridan bu o'tga bo'lsa boqmoq kim,  
 Isitma ranjidan, ey, gul, bo'libsang g'uncha andoqkim,  
 Hariru xullaliq jisming tushibdir pechu tob ichra.

Tuyuq yaratishda tajnisli qofiyani saqlashga alohida ahamiyat beriladi. Bu urinish yangi davr tuyuqchiligidagi ham to'la saqlangan. Masalan, buxorolik shoir G'ulom Shomurod quyidagi tuyug'ida soch so'zini tajnis qofiya sifatida qo'llaganiga guvoh bo'lish mumkin:

Do'stlarga hamisha mehr o'tini soch,  
 Mehr o'ti kamaymas, ko'pdir, misli soch.  
 Avvalo, bilgil, sen do'stni tanlashni,  
 Er urug' ko'kartsa, shunda donni soch.

Tuyuqning birinchi misrasida soch so'zi orqali sochmoq harakati, ikkinchi misrada esa soch oti, to'rtinchi misrada yana sochmoq harakati ifoda etilgan.

Mumtoz qofiya nazariyasi – harf nazariyasi edi, qofiya – grafik qofiya edi.

**XULOSA**

Zamonaviy shoirlar, asosan, shu nazariyaga rioya etdilar. Ular ijodida qofiya bilan bog'liq badiiy san'atlarning ham go'zal namunalari uchraydi. Xususan, mumtoz shoirlar adabiy merosida, umuman, adabiyot tarixida juda kam uchraydigan g'azali zebqofiyaning mavjudligi bu sohada ham

adabiy an'analar hali ustivorligidan dalolat qiladi. Ammo barqaror adabiy qonunlar – adabiy kanonlardagi taranglikning zaiflashuvi qofiyada ham kuzatiladi. Raviy, ridf, vasl bilan bog'liq o'zgarishlar; qofiya talabi bilan so'zning grammatik shakllarini o'zgartirish; ohangdoshlikda qo'shimchalargagina asoslanish – so'z o'zaklaridagi qofiyadoshlikni hisobga olmaslik, bir she'rda bir so'zni qofiya sifatida ikki marta qo'llash ana shundan dalolat beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kamol J. Asr bilan vidolashuv. Saylanma. – Toshkent: Fan, 2007. –284 b.
2. Kamol J.Yana ko'nglimda ul oy.Saylanma.– Toshkent: Fan,2007.–284 b.
3. Mahkam Asqar. Tazarru: She'rlar. – T.: G`G`ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – 112 b.
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 432 b.
5. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 2-jild. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – 492 b.
6. Sayyid S. Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni. –Toshkent: Sharq, 2005. –208 b.
6. Quvvatova, D., & Nazarova, D. I. (2020). The rubai genre in the works of Jamal Kamal. *The American Journal of Social Science and Education Innovations/Dilrabo Quvvatova, DI Nazarova*, (9), 346-352.
7. Nazarova, D. (2019). THE INTERPRETATION OF EDUCATIONAL IDEAS IN THE POEMS OF JAMAL KAMAL. *Theoretical & Applied Science*, (11), 136-138.
8. Nazarova, D. I. (2020). The foundation of Kamol Jamol's poems is pain. In *Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution* (No. 6, pp. 1-3).
9. Nazarova, D. I. (2020). Feelings of lyric heroes in Kamol Jamol's work. In *Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution* (No. 6, pp. 1-3).
10. Nazarova, D. I. (2020). Jamol Kamolning Asru radifli g'azaliga yozgan muxammasi. *Ilim ham ja'miyet. Ilmiy-uslubiy jurnal*,(1), 93.
11. Nazarova, D. (2019). POETRY OF JAMAL KAMOL. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(7), 186-189.
12. Назарова, Д., & Зойирова, Д. А. (2022). ЖАМОЛ КАМОЛ ДОСТОНЛАРИНИНГ БАДИЙ ҚУРИЛИШИ. *Scientific progress*, 3(1), 934-944.